



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Eshkuvatova Zarnigor Asliddin qizi**

**SamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti IV bosqich talabasi**

**MUMTOZ ADABIYOT VAKILLARIDAN NAVOIY IJODI VA  
HIKMATLARINI BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'TISH**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiy merosi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini shakllantirishning ilmiy-nazariy jihatlari yoritilgan bo'lib, bu o'qituvchilarning dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mumtoz adabiyotga olib kirishiga yordam beradi hamda o'quvchilarning mumtoz adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, hikmatlar, tafakkur, mumtoz adabiyot, pedagog, o'qituvchi, o'quvchi, ijod, metod.

Boshlang'ich sinf bolasining ma'naviyatini, tafakkurini shakllantirish- bu doimiy tizimlilik, uzviylikni, davomiylikni talab etadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda buyuk mutafakkir, davlat arbobi hazrat Alisher Navoiy merosidan foydalanishni davr taqozo qilmoqda. Bu borada birinchi yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida alohida to'xtalib o'tgani e'tiborga molik. "O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllaniga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri – bu Alisher Navoiydir bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi,



ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo farxlanib so'z yuritamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'ni-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biror-bir inson yo'qliki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.

Yosh avlod faqat Navoiy asarlaridan emas, umuman mumtoz adabiyotimiz chashmalaridan bebahra qolayotganligi juda tashvishlanarli. Ahvol shu tarzda davom etaversa, yaqin besh-o'n yilda o'tmis adabiyotimizga mutlaqo ehtiyoj sezmaydigan, go'zallik tuyg'usidan mahrum, moddiy dunyo g'am-tashvishidan boshqasini tan olmaydigan yoshlarning butun bir avlodi vujudga kelishi hyech gap emas. Eng yomoni, bunday o'spirinlar mustaqil fikr, adabiyot, san'at, ma'naviyat, ma'rifatninginson taqdiridagi qimmati, yashashdan asosiy maqsad nima ekanligi to'g'risida bosh qotirib o'tirishni ortiqcha tashvish deb biladi. Shu bois mumtoz adabiyot vakillarini boshlang'ich sinflarda o'rganish ahamiyatlidir.

Navoiy ijodi bebaho xazina. Undan imkon qadar tezroq foydalanish lozim. Shuning uchun bugungi kunda boshlang'ich sinflardan boshlab Navoiy merosi bilan bolalarni tanishtirish, ularni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash muhim masalalardan bir sanaladi. O'zbek xalqining ulug' shoiri va mutaffakiri Alisher Navoiy jahon adabiyotining buyuk san'atkorlaridandir. Uning nomi va merosi Gomer va Dante , Rudakiy va firdavsiy , Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa'diy va Jomiy , Shekspir va Balzak , Pushkin va Tolstoy kabi ulkan so'z san'atkori bilan birga tilga olinadi. Navoiyning butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga , xalqning osoyishtaligiga , obodonchilik ishlariga , ilm –fan ravnati va taraqqiyotiga bag'ishlangan desak , shubhasizdir. Navoiy me'rosi boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini shakllantirishda muhim vositalardan hisoblanadi.



Alisher Navoiy pedagog-mudarris. U ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko’rsatadi. U ta’limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiy kabi talablarni asos qilib oladi. O’z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. Uning asarlarida axloqiy va mehnat tarbiyasiga doir qarashlari asosiy o’rinni tashkil etadi. Alisher Navoiy ijodiyotiga qiziqish, uni o’rganish Yevropa va Rossiyada ham hiyla katta tarixga ega. Fransuz sharqshunosi *Kartmer* 1481 yilda boshilgan xrestomatiyasida Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug’atayn” va “Tarixi mulki Ajam”ini e’lon qilgan, I.N.Berezin “Turk xrestomatiyasi”da uning barcha asarlaridan parchalar berilgan. M.Nikitskiy 1856 yilda birinchi manbalar asosida “Amir Nizomiddin Alisher. Uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati” mavzuida magistrlik dissertasiyasini yozadi.

Aytib o’tilganidek , Navoiy ijodini o’rganish davr va yosh talab qilmydi.Zero , mutafakkir ijodidan har kim, har qachon o’ziga munosibini topa oladi.Albatta , dars jarayonlarining nechog’li samarali va mazmunli o’tishi har jihatdan o’qituvchining malaka va tajribasiga , psixologik mahorati va izlanuvchanligiga bog’liqdir.Navoiy ijodini boshlang’ich sinflarda o’rganish ko’p jihatdan aqliy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishga borib taqaladi. Aqliy tarbiya o’quvchilarini ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo’lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. T.: “ Ma’naviyat”, 2008 - yil.
2. Abdumannotov A. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida axloqiy xislatlarni shakllantirishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish. /Pedagogikaning dolzarb muammolari, 1-qism, Samarqand, 1998y., 61-62 b.



3. Abdumannotov A. Navoiy farzand adobi haqida. /Boshlang'ich ta'lif, 1996. №3, 38-b.
4. Abdurahmonov D., Abdurahmonova M., Usmonova G. Navoiyning til sandig'idan. -T.: Yoshlik, 1991, №3., 36-37 b
5. Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami. 7-tom. «Xamsa», «Hayrat ul-abror» T.: Fan, 1991 y. -390 b.
6. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T: «Sharq», 1997 y., 184b.
7. G'oziyev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): - T.: «O'qituvchi», 1994. -224 b.
8. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. -T.: O'zFan.
9. Hayitmetov A. Alisher Navoiyxonlik suhbatlari. -T.: O'qituvchi, 1993 y. -211 b.